



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI  
DAROMADLARI VA ULARNING SHAKLLANISH  
MANBALARINING XUSUSIYATLARI**

*Axtamov Ulug'bek, Hayotov Maxsud, Raxmonov Adham*

*TDIU MMT-95-guruh talabalari*

*Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada davlat byudjeti daromadlarini O'zbekiston Respublikasi moliyaviy siyosatida muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan bo'lib o'tgan yil davlat byudjeti daromadlarikeltirib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Davlat byudjeti daromadlari, soliqlar, soliqsiz daromadlar.*

Jahonning turli mamlakatlarida har xil sabablar bilan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuz berayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda puxta o'ylangan byudjet-soliq siyosati mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil odimlab borishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda mamlakatlar moliyaviy siyosatida davlat byudjetining ahamiyati beqiyosdir. Davlat byudjeti daromadlar va xarajatlar qismidan tashkil topgan.

Davlat byudjeti daromadlari bu- davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari. Bundan tashqari, davlat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida davlat tomonidan soliqlar va soliq bo'lmagan manbalardan kelib tushadigan mablag'larni o'zida jamlaydi. Soliqlarni yig'ish hukumatning eng asosiy vazifasidir, chunki daromad davlatning ishlashi, umumiy manfaatni ta'minlash va uning qonunlarini bajarish uchun zarurdir.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda mamlakatimizda 9 ta soliq turi mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

<sup>1</sup> Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma / B.Nurmuxamedova; -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018

- Foyda solig'i;
- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- Aylanmadan olinadigan soliq;
- Yuridik shaxslarni mol-mulkidan olinadigan soliq;
- Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq;
- Aksiz solig'i;
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- Qo'shilgan qiymat solig'i;
- Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Soliqsiz daromadlari bo'lsa-davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlarni o'zida mujassam etadi.

Quyidagi jadvalda 2023-yilda davlat byudjeti daromadlari tahlili keltirib o'tilgan;

### **2023-yil davlat byudjetidagi soliqlar tushumi va ulushlari<sup>2</sup>**

1-jadval

| №  | Ko'rsatgichlar                                  | 2023-yilda byudjet daromadlaridagi ulushi mlrd so'm. | Jami daromatlarda tutgan ulushi foizda. |
|----|---|--|---|
| 1. | Foyda solig'i                                   | 40778.9  | 17.59                                   |
| 2. | Aylanmadan olinadigan soliq                     | 2407.3   | 1.03                                    |
| 3. | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 29917.4  | 12.91                                   |
| 4. | Qo'shilgan qiymat solig'i                       | 57885.3  | 24.98                                   |
| 5. | Aksiz solig'i                                   | 15834.4  | 6.83                                    |
| 6. | Bojxona boji                                    | 9606.1   | 4.14                                    |
| 7. | Mol-mulk solig'i                                | 5097.7   | 2.19                                    |
| 8. | Yer solig'i                                     | 6890.1   | 2.97                                    |
| 9. | Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq         | 15300.3  | 6.60                                    |

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portal ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

|     |   |          |       |
|-----|---|----------|-------|
| 10. | Suvresurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 791.4    | 0.34  |
| 11. | Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar     | 47212.5  | 20.37 |
| 12. | Davlat byudjeti daromadlari (jami)          | 231721.3 | 100   |

Ushbu jadvalda 2023-yil dalat byudjeti daromadlari tahlili aks ettirilgan bundan ko'rinib turibdiki byudjet daromadlarida soliqlarning o'rni kata, soliqlar ichidan asosiy ulushni qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri keladi ya'ni jami davlat byudjeti daromadlarini 24.98%ini tashkil etgan. Undan keying o'rinlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'I 12.91%ni foyda solig'i bo'lsa 17.59%larni tashkil qilib solikli daromatlarda asosiy ulushni egallagan. 2023-yilda davlat byudjetining soliqsiz daromadlari bo'lsa 20.37%ni tashkil qilgan yildan-yilga davlat byudjetining soliqsiz daromadlari ham o'sib bormoqda.

2023-yilda davlat byudjeti daromadlari prognozi 231172.3 mlrd so'm ya'ni YaIMga nisbatan 21.8% tashkil qildi.

2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar, xamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

## 2-jadval

### 2023-yildagi mahalliy byudjetlarnig daromad va xarajatlari.<sup>3</sup> mlrd.so'm

| No | Hududlar nomi                 | Daromadlar | Xarajatlar |
|----|-------------------------------|------------|------------|
| 1. | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2703.3     | 5375.7     |
| 2. | Andijon viloyati              | 3802.7     | 6608.2     |
| 3. | Buxoro viloyati               | 3817.2     | 4463.1     |
| 4. | Jizzax viloyati               | 2184.9     | 3469.3     |
| 5. | Qashqadaryo viloyati          | 4561.2     | 8380.2     |
| 6. | Navoiy viloyati               | 2993.6     | 2993.6     |

<sup>3</sup> Fuqarolar uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, BMTTD. T.: 2023

|     |                      |        |         |
|-----|----------------------|--------|---------|
| 7.  | Namangan viloyati    | 3713.4 | 6613.3  |
| 8.  | Samarqand viloyati   | 4958.8 | 7155.1  |
| 9.  | Surxondaryo viloyati | 3042.3 | 6291.2  |
| 10. | Sirdaryo viloyati    | 1406.1 | 2492.3  |
| 11. | Toshkent viloyati    | 5866.2 | 5866.2  |
| 12. | Farg'ona viloyati    | 5437.8 | 7618.8  |
| 13. | Xorazm viloyati      | 2719.2 | 4160.6  |
| 14. | Toshkent shahri      | 7739.3 | 7739.3  |
| 15. | Jami                 | 54946  | 79226.9 |

Ushbu jadvalda 2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar, xamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlarini tahlil qilingan. Toshkent shahri daromadlari va xarajatlari 7739.3 mlrd so'm, Toshkent viloyati daromadlari va xarajatlari 5866.2 mlrd so'm, navoiy viloyati daromadlari va xarajatlari 2993.6 mlrd so'mni tashkil qilib mahalliy byudjetlar ichida bu 3ta hududlar daromadlari xarajatlarini to'liq o'zi qoplay olishi prognoz qilingan. Qolgan barcha hududlarga respublika byudjetidan byudjetlararo transfert to'lovlari ajratilgan.

Byudjet daromadlari mamlakatning moliyaviy ahvolini tushunishda, uning moliyaviy siyosatini shakllantirishda va moliyaviy maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Davlat budjeti daromadlari xalqaro standartlarga muvofiq yig'ilishi va xarajatlarga mos ravishda to'g'ri boshqarilishi zarur. Shuning uchun byudjet mablag'larini doimiy ravishda nazorat qilinib turishi kerak, ba'zi holatlarda mansabdor shaxslar o'z manfaati yo'lida byudjet mablag'larini talon-taroj qilishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun ko'plab nazorat tekshiruvlari amalga oshiriladi.

Davlat budjetining daromadlari turli manbalar, jumladan, soliqlar, investitsiyalar, qarz mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat byudjeti daromadlarini tahlil qilish mamlakatning moliyaviy salomatligi, siyosati va xalqaro munosabatlari haqida tushuncha beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
2. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
3. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
4. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
5. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
6. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
7. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
8. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
9. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
10. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).